

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: +998 71 244-43-56, E-mail: vilekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i: Qambarov Giyosbek Sayfidinovich

Sana: 29-06-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

248637 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent viloyati Zangiota tumani "Nurafshon" MFY, Yangi tong ko'chasi 1a-uy manzilida O'z chegara o'lchamidan chiqmagan holda "Yerto'la qismi avto turargoh, pastki qavatlar savdo va maishiy xizmat ko'rsatish va ofis bo'lgan ko'p xonadonli turar joy binolari"ni qurish	
Buyurtmachi:	ALHFA-PLAZA TRADE MCHJ
Bosh loyihachi:	"CONSTRUCT SIDE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov savdolari asosida aniqlanadi.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	077370

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Loyiha topshirig'i 2025-yilda "ALHFA PLAZE TRADE" MChJ tomonidan tasdiqlangan va loyiha tashkiloti "CONSTRUCT SIDE" MChJ bilan kelishilgan.

1.2. Toshkent viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 2-iyunda ishlab chiqilgan 1727-1727237-227947 - sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda o'z hududida qo'shimcha bino va inshootlarni qurish 2025-yil 26-maydagi 187724930-sonli ruxsatnomasi

1.4. "STORY MAX PROEKT" MChJ tomonidan 2024-yilda bajarilgan, hududning muhandislik-geologik sharoitlari haqidagi xulosa.

1.5. "HET" AJ "Davlat va shartnomaviy xizmatlarni rivojlantirish" filiali tomonidan 2023-yil 28-apreldagi 01/2012 - sonli elektr tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar.

1.6. "Toshkent shahar suv ta'minoti" MChJ tomonidan 2023-yil 3-apreldagi 270/4-806-sonli texnik shart.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiga ko'ra "Toshkent viloyati Zangiota tumani "Nurafshon" MFY, Yangi tong ko'chasi 1a-uy manzilida O'z chegara o'lchamidan chiqmagan holda "Yerto'la qismi avto turargoh, pastki qavatlarini savdo va maishiy xizmat ko'rsatish va ofis bo'lgan ko'p xonadonli turar joy binolari"ni qurish" obyektining taqdim qilingan ishchi loyihasi va loyiha oldi hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonining shartlari.

- Me'yoriy shamol tezligi bosimi - 0,38 kPa (38 kg/m²);
- Me'yoriy qor yuki - 0,50 kPa (50 kg/m²);
- Qurilish maydonchasining seysmikligi - 8 ball;
- Tuproqning seysmik xususiyatlariga ko'ra toifasi - II toifa;
- Tuproqning cho'kuvchanligiga ko'ra toifasi - II toifa;
- Tuproq muzlash qatlamining normativchuqurligi - 0,70 metr.

3.2. Bosh reja.

Loyiha asosida Toshkent viloyati Zangiota tumani "Nurafshon" MFY, Yangi tong ko'chasi 1a-uy manzilida joylashgan obyektida pastki qavatlarini savdo do'konlari yuqori qavatlarini ofis bo'lgan 12 qavatli bino, pastki -2 yerto'la qavat avto turargoh, 3 qavat savdo do'konlari yuqori qavatlarini turar-joy binolari, bolalar maydonchasi, TP, hududni obodonlashtirish, va ko'kalamzorlashtirish ishlari ko'zda tutilgan.

Hudud balansini:

Qurilish maydoni - 8 540,55 m²;
Umumiy maydon - 10 174,0 m²;
Qoplamalar maydoni - 7 503,0 m²;
Ko'kalamzorlashtirish maydoni - 1 127,0 m²;
Qurilish hajmi - 371 648,68 m³.

3.3. Arxitektura-qurilish yechimlari.

Pastki qavatlarini savdo do'konlari yuqori qavatlarini ofis bo'lgan 12 qavatli bino.

Loyihalangan savdo do'konlari binosi 12 qavatdan iborat, -2 qavat yerto'la loyihalangan, 5 qavatini savdo do'konlari, yuqori qavatlarini ofis xonali qilib loyihalangan, o'qlardagi umumiy o'lchamlari 57,79x41,4 metr, -1-2-yerto'la qavatlarini 3,0 metrdan, 1-2-qavatlar 3,45 metr, 3-4-5-6-7-8-9-10-11-qavatlar 3,3 metrdan, (balandliklar poldan polgacha olingan) 12-qavat balandligi poldan shiftgacha 6,76-metr. Binoning umumiy balandligi yer sathidan 46,745 metr. Qavatlar aro aloqa zina, liftlar va eskalator orqali amalga oshiriladi.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Binoning qurilish maydoni - 1 621,60 m²;
Binoning umumiy maydoni - 21 804,0 m²;
Binoning qurilish hajmi - 95 500,83 m³, jumladan;
Nolovoy sathdan pastki qurilish hajmi - 11 686,53 m³;
Nolovoy sathdan yuqori qurilish hajmi - 83 814,3 m³;

3 qavat savdo do'konlari yuqori qavatlarini turar-joy binolari.

Loyihalangan savdo do'konlari va turar-joy binosining 3 qavatini savdo do'konlari, yuqori qavatlarini turarjoy binolari ko'zda tutilgan. Yerto'la -2 qavatida avtoturargoh loyihalangan, o'qlardagi umumiy o'lchamlari 135,6x102,27 metr, D-E, 7-8 va 17-18-o'qlarda seysmik chok qoldirilgan, Binoning umumiy balandligi yer sathidan 45,625 metr. Qavatlar aro aloqa zina va liftlar orqali amalga oshiriladi.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Binoning qurilish maydoni – 6 918,95 m²;

Binoning umumiy maydoni – 67 825,86 m²;

Avtoturargoh maydoni – 21 839,8 m²;

Xonadonlar maydoni – 20 540,04 m²;

Binoning qurilish hajmi – 289 098,01 m³, jumladan;

Nolovoy sathdan pastki qurilish hajmi – 82 326,2 m³;

Nolovoy sathdan yuqori qurilish hajmi – 206 768,16 m³;

Ichki va tashqi pardoqlash ishlarida zamonaviy qurilish materiallaridan koʻzda tutilgan.

3.4. NBShlarning qulay va toʻsiqsiz harakatlanishi uchun yechimlar.

Obyekt hududida nogironligi boʻlgan shaxslar uchun ogohlantiruvchi va yoʻnaltiruvchi taktil qoplamalar, maxsus avtoturargoh va boshqalar koʻzda tutilgan.

Asosiy binoga kirish qismida nogironligi boʻlgan shaxslar uchun panduslar koʻzda tutilgan. Yoʻlak va zinlardagi eshiklar oʻzini oʻzi yopadigan moslamalar bilan jihozlangan. Binoga kirish qismida va yoʻlaklarda koʻzi ojiz shaxslar uchun ogohlantiruvchi va yoʻnaltiruvchi taktil qoplamalar va devorlar boʻylab tutqichlar, eshiklar atrofi maxsus kontrast rangli tasmalar bilan ajratilgan. Binoda nogironligi boʻlgan shaxslar uchun maxsus xojatxona va lift loyihalangan. Zinalardagi tutqichlarda brayl alifbosidagi taktil maʼlumotlar, avtoturargohda nogironligi boʻlgan shaxslar uchun maxsus belgili joy ajratilgan va boshqalar loyihalangan.

3.5. Konstruktiv yechimlari.

Pastki qavatlari savdo doʻkonlari yuqori qavatlari ofis boʻlgan 12 qavatli bino.

Binoning konstruktiv yechimi – monolit temirbeton karkas, diafragmali ortogonal yoʻnalishdagi rigelli ramalar.

Poydevorlar osti asosi – 3,0 metr qalinlikda zichlangan tuproq (gruntovoy podushka) toʻshalgan va beton toʻshama, qalinligi 100 mm beton sinfi B7,5.

Poydevor – monolit temir-beton yaxlit plita, beton sinfi B20 W4 qoʻshimcha bilan;

Yertoʻla devori, diafragma, lift shahtalari – monolit temir-beton, beton sinfi B25;

Ustun va toʻsinlari – monolit temir-beton, beton sinfi B25;

Devor (tashqi va ichki) – gazobloklardan;

Orayopma – monolit temir-beton, beton sinfi B25;

Zinalar – monolit temir-beton, beton sinfi B20;

Tom qoplamasi – temir konstruksiyalar ustidan temir cherepitsa bilan yopilgan.

3 qavat savdo doʻkonlari yuqori qavatlari turar-joy binolari.

Binoning konstruktiv yechimi – monolit temirbeton karkas, diafragmali ortogonal yoʻnalishdagi rigelli ramalar.

Poydevorlar osti asosi – 3,0 metr qalinlikda zichlangan tuproq (gruntovoy podushka) toʻshalgan va beton toʻshama, qalinligi 100 mm beton sinfi B7,5.

Poydevor – monolit temir-beton yaxlit plita, beton sinfi B20 W4 qoʻshimcha bilan;

Yertoʻla devori, diafragma, lift shahtalari – monolit temir-beton, beton sinfi B25;

Ustun va toʻsinlari – monolit temir-beton, beton sinfi B25;

Devor (tashqi va ichki) – gazobloklardan;

Orayopma – monolit temir-beton, beton sinfi B25;

Zinalar – monolit temir-beton, beton sinfi B20;

Tom qoplamasi – temir konstruksiyalar ustidan temir cherepitsa bilan yopilgan.

3.6. Yongʻin xavfsizligi.

Evakuatsiya yoʻlaklar va zina maydonchalari boʻylab. Evakuatsiya yoʻllarida eshiklarni ochishlishi binodan chiqish yoʻnalishi boʻyicha. Evakuatsiya yoʻllarida ichki va tashqi

pardozlash yonmaydigan materiallardan. Tom izolyatsiya materiallari yonmaydigan materiallardan. Tom yo'goch konstruksiyalari yong'inga qarshi suyuqlik bilan ishlov berilgan. Binoda yong'in signalizatsiyasi va yong'inga qarshi suv ta'minoti ko'zda tutilgan. Hududda yong'inga qarshi rezervuar va yong'in qalqonlari amal oshirilgan.

3.7. Energiya samaradorlik yechimlari.

Energiya resurslarini tejash maqsadida loyihada quyidagi yechimlar qo'llanilgan:

-barcha tashqi to'siqlar (devorlar, qoplamalar, derazalar) energiya tejash shartlarini hisobga olgan holda amalga oshirilgan;

-bino energiya tejamkor issiqlik izolyatsiyasi materiallar bilan ximoyalangan;

-yoritish tizimida energiya tejamkor LED lampalardan foydalanish ko'zda tutilgan;

Bino tom qismiga quyosh panellari o'rnatish ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Loyihalanayotgan obyektida barcha zaruriy binolarning ichki muhandislik tarmoqlari, suv va oqova suv ta'minoti, isitish va shamollatish tizimi, elektr ta'minoti, aloqa tizimlari, videokuzatuv tizimlari, yong'in signalizatsiya tizimlari, tegishli tashkilotlar tomonidan berilgan texnik shartlar va loyihalash topshirig'iga muvofiq, ta'minlash ko'zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaharsozlik kengashining 2025-yil 19-iyundagi 195651207- sonli xulosasi;

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent viloyati filialining 2025-yil 13-iyundagi 01-02/11-6697-sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha buyurtmachi tomonidan ekspertiza ko'rigiga sharhlar, takliflar va e'tirozlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning lokal sharhlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar, tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-266 – son qaroriga muvofiq hamda ShNQ 2.07.02-24 asosida ishchi loyihaga tuzatish va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan, qurilish tugagandan so'ng, haqiqatda bajarilgan ishlar va nazorat o'lchovlari natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579 – sonli qaroriga binoan, ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

Loyihachi tashkilot Buyurtmachiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan taklif va e'tirozlar yuzasidan qabul qilingan ko'rsatmalar asosida loyiha-smeta hujjatlariga tegishli o'zgartirishlarni kiritib tasdiqlangan xolda taqdim etishi kerak. Loyihachi tashkilot o'z tomonidan berilgan javoblar uchun mas'ul va javobgardirlar.

6.5. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **"Toshkent viloyati Zangiota tumani "Nurafshon" MFY, Yangi tong ko'chasi 1a-uy manzilida O'z chegara o'lchamidan**

chiqmagan holda “Yerto’la qismi avto turargoh, pastki qavatlar savdo va maishiy xizmat ko’rsatish va ofis bo’lgan ko’p xonadonli turar joy binolari”ni qurish” obyektining ishchi loyihasi kelgusida ko’rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Saidburxanov Saidakbar Saidumar O’g’li.

Ishtirokchi ekspertlar: Turginov Maxkam Erkenovich, Sur’atov Xusan Tulqin O’g’li, Abdumutaliyev Elyorjon Anvarjon O’g’li, Bekbayev Sanjar Qodirjon O’g’li, Tulteyev Kenes Tovasovich, Saidburxanov Saidakbar Saidumar O’g’li, Xamdamov Umid Aminbayevich, Vaxobov Ma’ruf Mislimbekovich, Mirzayev Nodirbek Xalilovich